

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2023**

**5-son**  
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'ZMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
 TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
<b>A. Nasirov</b>	6	Umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)
<b>X. Ibraimov, F. Ibragimova</b>	12	Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida
<b>O. G'aniyev</b>	15	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti
<b>M. Umnova</b>	19	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiyalari
<b>Sh. Jo'rayev</b>	24	Bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida
<b>J. Shukurllayev</b>	28	Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni
<b>D. To'rayeva</b>	31	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)
<b>G. Ibragimova</b>	35	O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar
<b>A. Suyunov</b>	38	Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari
 TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
<b>N. Yuldasheva</b>	42	Pedagogik jarayonda "o'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
<b>R. Eshimov, S. Israilov</b>	46	Umumta'lim maktablariga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida)
<b>Q. Muxammadiyev</b>	51	Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
<b>R. Ziyayev, M. Umarova</b>	54	Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish
<b>L. Mambetova</b>	58	Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslanishi
<b>O. Yusupov</b>	61	Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanini o'qitish metodikasi
 ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
<b>G. Buvorayeva</b>	65	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida)
<b>B. Amirullayeva</b>	68	Tabiiy fan o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konstruktiv yondashuv

	<b>M. Tairova</b>	75	Bo'lajak tarbiyachilarni mutaxassislikka tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish
	<b>N. Kadirova</b>	79	O'quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yangicha yondashuv tajribasi
	<b>Z. Komilova</b>	84	Innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish
	<b>I. Jumaniyazova</b>	89	Milliy mumtoz adabiyot namunalarining o'qitilishiga doir tadqiqotlar tahlili
<b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>			
	<b>M. Xalilova</b>	93	Maktabgacha ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishda ikkinchi tilni o'rganishning psixofiziologik ahamiyati
<b>KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH</b>			
	<b>K. Masharipov</b>	97	Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishning dolzarbligi
<b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>			
	<b>D. Sharipova, I. Ibrohimov</b>	100	Yo'l harakati xavfsizligida piyodalarning o'rni – pedagogik aspekt (Koriya tajribasi asosida)
<b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>			
	<b>V. Karayev</b>	106	Sport hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv
	<b>Sh. Mirzakulov</b>	110	5-7 sinf o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi
	<b>A. Sabirov</b>	114	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini shakllantirishning uslubiy ahamiyati
	<b>S. Abduraximov</b>	118	Voleybol murabbiyining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi
<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>			
	<b>A. Shadiyev</b>	122	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish dinamikasiga xos xususiyatlari
<b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>			
	<b>D. Kamoljonova</b>	126	Xorijiy tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish (AQSh va Yevropa misolida)
	<b>A. Xolmurodov</b>	130	Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or xorijiy tajribalari
<b>KORREKSION PEDAGOGIKA</b>			
	<b>R. Safarov</b>	135	Ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarishda korreksion tarbiya va tarbiyachilarning o'rni
<b>ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ</b>			
	<b>Л. Набиуллина</b>	140	Подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования

**Sardor ABDURAXIMOV,**

Chirchiq davlat pedagogika universteti,

"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası o'qituvchisi

## VOLEYBOL MURABBIYINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI

### Annotatsiya

Maqolada voleybol o'qituvchi-murabbiyiga qo'yiladigan talablar hamda voleybol bo'yicha iste'dodli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash, shuningdek, ommaviy voleybol geografiyasini yanada kengaytirish, mashg'ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati, yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis-kadrlar yetishtirish muhimligiga e'tibor qaratish xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Konstruktiv ko'nikma, kommunikativ ko'nikma, gnostik ko'nikma, voleybol.

В статье рассматриваются требования к преподавателю-тренеру по волейболу и подготовка талантливого спортивного резерва и высококвалифицированных, конкурентоспособных спортсменов по волейболу, а также необходимость дальнейшего расширения географии массового волейбола, организации тренировок и соревнований на научной основе с акцентом на важность подготовки кадров специалистов с высоким профессионально-педагогическим потенциалом.

**Ключевые слова.** Конструктивный навык, коммуникативный навык, гностический навык, волейбол.

The article discusses the requirements for a volleyball teacher-coach and the training of a talented sports reserve and highly qualified, competitive volleyball athletes, as well as the need to further expand the geography of mass volleyball, organize training and competitions on a scientific basis with an emphasis on the importance of training specialists with high professional and pedagogical potential.

**Key words.** Constructive skill, communication skill, gnostic skill, volleyball.

**XXI** asr inson va jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning global miqyosda jadal sur'atlar bilan shakllana borishi, ishlab chiqarish, uy-ro'zg'or, yo'l harakatlari, hatto intellektual jarayonlarni "avtomatlar", kompyuterlar va robotlar "qo'liga" topshirmoqda. Ushbu vaziyat bir tomondan, odamzot uchun barcha qulayliklarni muhayyo etsa, ish sifati va samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, jismoniy mehnat – mushaklar faoliyatini nihoyatda chegaralab qo'yimoqda. Aynan ikkinchi holatning ustuvorligi asta-sekin gipokineziya (kam harakatlanish) dardiga muhtalo qiladi. Gipokineziya esa, o'z navbatida, hayotga xavf soluvchi zamon sivilizatsiyasiga xos xastaliklar (ishemiya, gipertoniya, bronx astmasi, nevroz, osteoxondroz va h.k.)ni keltirib chiqarishi isbot talab qilmaydi. To'g'ri, ushbu kasalliklardan xalos bo'lish uchun "o'tkir" dori-darmonlar va zamonaviy muolaja usullari mavjud. Lekin bunday vositalar bir darddan "ozod" qilib, ikkinchi bir dardni "chaqirishi" ehtimoldan holi emas. Olimlar tomonidan azaldan ilmiy asosda isbot qilinganki, gipokineziyani oldini oluvchi yoki davolovchi yagona va o'ta samarali "dori-darmon" me'yorlangan jismoniy tarbiya va sport mashqlaridir.

Voleybol o'zining hammaboplighi, kamxarajatligi, go'zal o'yin mazmuni, katta-yu kichik diqqatini o'ziga rom qiluvchi hujum va himoya kombinatsiyalari bilan yurtimiz shahar-qishloqlarida, mahalla-yu maskanlarda, to'y va bayramlarda bahs-raqobat, sihat-salomatlik, jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Voleybol – o'quv fani sifatida barcha ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan,

---

darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko'rsatadigan sport to'garaklari, BO'SM-lar, sport klublarida maxsus rejalashtiruv hujjatlariga asoslangan o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan.

Shu bilan bir qatorda, ayni kunda voleybol bo'yicha iste'dodli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda ommaviy voleybol geografiasini yanada kengaytirish, mashg'ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis-kadrlar yetishtirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Jismoniy tarbiya va xususan, voleybol bo'yicha tayyorlanadigan o'qituvchi-murabbiyning modeli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan DTS va namunaviy dastur talablari bilan belgilanadi.

Voleybol bo'yicha oliy ma'lumotga ega o'qituvchi-murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyati barcha ta'lim va sport muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

O'qituvchi-murabbiy amaldagi o'quv rejasida qayd etilgan fundamental, maxsus va ixtisoslik fanlari bo'yicha belgilangan nazariy bilim, kasbiy-pedagogik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi, jismoniy tarbiya va sportga oid hamda aloqador huquqiy, me'yoriy va ma'muriy hujjatlar mohiyatini bilishi va ularga amal qilishi, ommaviy sport mashg'ulotlarini o'tkazish, sport zaxiralari va yuqori malakali sportchilar tayyorlash tajribasini o'rganib borishi darkor. Shaxs sifatida shakllangan, yuksak ma'naviy va madaniy xislatlarga ega, aqlan teran, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida jo qilgan, murakkab vaziyatlarda tashabbus va mas'uliyatni o'ziga olishga qodir va keng dunyoqarashga ega inson bo'lib yetishishi talab qilinadi.

O'qituvchi-murabbiyga qo'yiladigan malakaviy talablar uning kasbiy-pedagogik faoliyatiga xos turli yo'nalishli ko'nikmalar bilan belgilanadi: boshqaruvchilik, loyihalash, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, gnostik, targ'ibot-tashviqot, tadqiqotchilik.

Murabbiyning loyihalash ko'nikmasi o'z ichiga ko'p yillik sport trenirovkasi tizimida yuqori malakali va sport zaxiralarni tayyorlash, yillik tayyorgarlik sikli (makrotsikl), mezotsikl va mikrotsikllarga mo'ljallangan mashg'ulotlar loyihasi ishlab chiqish, ommaviy voleybol tadbirlarini rejalashtirish hamda sportchilarni ertalabki gimnastika va jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar majmualarini mustaqil rejalashtirishga o'rgatish kabi masalalarni kiritadi.


Konstruktiv ko'nikma – bu shug'ullanuvchilarni voleybolga oid va unga aloqador bilimlar bilan qurollantirish, mashqlarning murakkabligi va organizmga ta'sir etish xususiyati bo'yicha ularni tanlashga o'rgatish, mehnat, ta'lim olish, ovqatlanish, uxlash va dam olish jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, sportchilarni mashg'ulot va musobaqa jarayonlarida mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish muammolarini o'z ichiga oladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – bu shug'ullanuvchilarning ko'pqirrali va ko'pyo'nalishli faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish jarayonlarini maqsadli amalga oshirish kabi chora-tadbirlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ ko'nikma – bu murabbiyda sportchilar, ota-onalar, turli toifa va mansabga ega xodimlar, jamoat tashkilotlari bilan to'g'ri munosabat o'rnatish masalalari bilan izohlanadi.

Gnostik ko'nikma voleybolga oid turli yosh va malakali voleybolchilar mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatiga xos bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy va uslubiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, o'z tajribasi va ilg'or tajribalar mohiyatini tahlil qilish masalalarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchi-murabbiy faoliyatiga xos ushbu ko'nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari, talabalar ta'lim jarayonida tanishtiruv amaliyoti, o'qituvchilik va murabbiylik kasbi bo'yicha malakaviy amaliyotlar talablarini bajarishi va faning barcha boblari va tuzilmasidan ham amaliy, ham nazariy jihatdan ma'lumotga ega bo'lishi shart.



"Voleybol nazariyasi va uslubiyati" fanida (shu jumladan, voleybol amaliyotida ham) tez-tez takrorlanib turadigan tushunchalar va atamalar mohiyatini bilish, ularning mantiqiy ma'nosini anglab olish ushbu darslik mavzulari va materiallarini yanada chuqurroq o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Quyida qator tushunchalar va atamalar mohiyati ochib berilgan:

Texnika – yunoncha "tehnus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida "san'at" ma'nosini anglatadi. Sport amaliyotida va xususan, voleybolda "texnika" harakat ma-



---

lakalari, o'yin usullarining tuzilish shakli, mazmuni va ijro etish tartibini ifodalaydi. Muayyan harakat (o'yin usuli – zarba, to'p uzatish, to'p kiritish va h.k.) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik ko'p va uzoq vaqt takomillashtirilsa, u shunchalik go'zal, chiroyli, yengil, bioenergetik jihatdan tejamli, samarali, aniq va "san'at" darajasida ijro etiladi.

Taktika – yunoncha "taktikos" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "tartiblashtirish" ma'nosini anglatadi.

Strategiya – yunoncha "strategia" so'zidan olingan bo'lib, harbiy sohada, siyosiy partiyalarda eng samarali yo'l, usul yoki vositani tanlab, g'alaba sari olib borish ma'nosini ifodalaydi.

O'yin malakalari – o'yin vositalari (to'p uzatish, to'p qabul qilish, zarba, to'siq, to'p kiritish)ni ifodalovchi harakat turlarini anglatadi.

O'yin usullari – o'yin malakalarini turlicha usullar (yuqoridan va pastdan ikki qo'llab hamda bir qo'llab to'p uzatish, to'g'ri yo'nalishda zarba berish yoki burib zarba berish, to'p kiritish turlari va h.k.)da ijro etishni ifodalaydi.

Taktik harakat – samarali natija yoki g'alabaga qaratilgan hamda yakka, guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan malakalarni anglatadi.

Texnik tayyorgarlik – texnik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ushbu jarayonning natijasi texnik mahoratni o'sganlik darajasini ko'rsatadi.

Taktik tayyorgarlik – taktik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ushbu jarayonning natijasi taktik mahoratni o'sganlik darajasini ko'rsatadi.

Mashg'ulot yuklamasi – muayyan hajm, shiddat, muddat, takrorlanish, yo'nalishda ijro etiladigan va sportchi organizmiga (ish qobiliyatiga) ta'sir etuvchi mashqlar yig'indisini ifodalaydi.

Musobaqa yuklamasi – musobaqa davomida bajariladigan va ish qobiliyatiga ta'sir etadigan o'yin yuklamasini anglatadi.

Tanlov va o'yin ixtisosligi (amplua)ga yo'naltirish – nasliy va hayot davomida erishilgan jismoniy (bo'yi, vazni, kuch, tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik va h.k.) va psixofiziologik (harakat reaksiyasi, ko'rish doirasi, ko'rish o'tkirligi, diqqatni jamlanishi, eslab qolish qobiliyati, yurakni qisqarish chastotasi, nafas olish chastotasi, arterial qon bosimi va h.k.) ko'rsatkichlarni baholash asosida sport turiga saralab olish hamda boshlang'ich tayyorgarlik yakuniga borib va o'quv-trenirovka bosqichi davomida o'yin ixtisosligiga yo'naltirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Tanlov ko'p qirrali, keng qamrovli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, har o'quv-trenirovka yil yakunida o'tkazilishi tavsiya etiladi. Terma va klub jamoalariga qabul qilish (saralash.) ham tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, voleybol amaliyotida "Zarbaga qisqa, uzun, tezkor to'p uzatish", "Morita" (yapon o'yinchisi ismi bilan atalgan) finti, "Kesim" (krest), "To'lqin" (volna), "Ketma-ket" (eshelon) va boshqa shu kabi atamalar qo'llaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pulatov A.A., Israilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. //O'quv qo'llanma. – T., 2007. – 148 b.

2. Isroilov Sh.X. Voleybol. //Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Tasvir, 2008. – 144 b.

**Bosh muharrir:**

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas'ul kotib:**

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY'ATI:**

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: xalq\_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52  
t.me/xalq\_talimi\_jurnali. http://t.me/xalq\_talimi\_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_. \_\_. \_\_-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_ nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – To'xtamurodova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rusbxt.ru/antiplagiat> sayti hamda [https://t.me/check\\_antiplagiat\\_bot](https://t.me/check_antiplagiat_bot) da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta'limi” jurnali, 2023.